



ESKI SHAHAR MAHALLASINI SAQLASH: TURKIYA TAJRIBASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15498039>

*Talipov Makhirjan Agzamovich, professor, KIUT
To'lqunov Otabek Axmadjon o'g'li, o'qituvchi, KIUT*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiyaning tarixiy shaharlarida joylashgan eski mahallalarning arxitekturasi va, ayniqsa, uylardagi interyer dizayni tahlil qilinadi. Mahallalarning shakllanishi, mahalla hayoti, turar joylarning tashqi va ichki ko'rinishi, me'moriy unsurlar va madaniy qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlik bayon etiladi. Tadqiqot natijalari eski shahar hududlarini asrash va zamonaviy rivojlanishga uyg'unlashtirishga oid fikrlar uchun muhim tajriba sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Turkiya, eski mahalla, tarixiy uylar, interyer dizayni, shahar merosi, arxitektura, madaniy muhit.

Аннотация. В статье анализируется архитектура старых кварталов исторических городов Турции, и, в особенности внутреннее убранство домов. Изучаются формирование кварталов, жизнь кварталов, внешний и внутренний облик жилищ, архитектурные элементы, взаимосвязь культурных ценностей. Результаты исследования считаются важным экспериментом для идей по сохранению старых городских территорий и адаптации их к современной застройке.

Ключевые слова: Турция, старый квартал, исторические дома, дизайн интерьера, городское наследие, архитектура, культурная среда.

Abstract. The article analyzes the architecture of old quarters of historical cities of Turkey, and in particular the interior decoration of houses. The formation of quarters, life of quarters, external and internal appearance of houses, architectural

elements, the relationship of cultural values are studied. The results of the study are considered an important experiment for ideas on preserving old urban areas and adapting them to modern development.

Keywords: Turkey, old quarter, historical houses, interior design, urban heritage, architecture, cultural environment.

KIRISH

Bugungi kunda jadal urbanizatsiya jarayonlari dunyo bo‘ylab ko‘plab shaharlarda tarixiy va madaniy merosni saqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Madaniy meros qatorida esa Eski Shahar mahallalari alohida o’rin tutadi. Avvalambor mahalla atamasi haqida qisqacha gapirib o’tsak. **Mahalla** – O‘zbekistonda va boshqa ko‘plab mamlakatlarda ma’muriy-hududiy birlik. Mahalla atamasi arabcha bo‘lib, “o‘rin-joy” degan ma’noni anglatadi. Mahalla turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Hozirgi kunda turli ma’muriy birliklar, jumladan, okrug, shahar tumani ma’nolarida ishlatiladi.[1] Mahallalar bugungi kunda har xil ko’rinishga ega. Ayniqsa, shaharlarning tarixiy qismlarida joylashgan mahallalar – ularning me’moriy tuzilishi, interyeri va ijtimoiy muhitini asrab-avaylash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistondan tashqari boshqa mamlakatlar tajribasi ham borgan sari rivojlanib bormoqda. Turkiya Respublikasi bu borada boy tajribaga ega bo‘lib, uning ko‘plab shaharlarida eski mahallalarni saqlash va ular asosida turizm, hunarmandchilik va jamoaviy hayotni uyg‘unlashtirish muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu maqolada aynan Turkiyaning turli shaharlari – Safranbolu, Karabyuk, Amasra va Istanbulda mavjud bo‘lgan eski shahar mahallalarining ichki tuzilishi, ijtimoiy hayoti va madaniy muhiti o‘rganilib, ular orqali biz uchun dolzarb bo‘lgan urbanistik me’moriy va dizayn yechimlariga baho beriladi.

ASOSIY QISM

Turk eski shahar uylari interyerlarining ko‘zga tashlanadigan bir qancha holatlar ustida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Turk uylarining interyerlarida ko‘zga tashlanadigan asosiy elementlardan biri bu xonaning kengligi, ayniqsa, mehmonxonaning kengligi va uning nihoyatda kam jihozlar bilan jihozlanganligi, asosiy e’tibor perimetr bo‘ylab joylashtirilgan yumshoq o‘rindiqqa qaratilganligida. Ushbu o‘rindiqda tashrif buyurgan mehmonlar joylashishlari hamda xushfe’llik va takalluf ila taklif etiladigan bardak choy ichishlari mumkin bo‘ladi. Yana bir ko‘zga tashlanadigan jihat bu xonadagi juda chiroyli bezaklarga ega bo‘lgan qandillar. Qandillarni deyarli barcha turk xonadonlarining asosiy go‘zallik baxsh etuvchi jihozи deb hisoblasak mubolag‘a bo‘lmaydi. So‘nggi yillarda zamonaviy turdagи qandillar urf bo‘la boshlagan bo‘lsada, ularda qadimgi qandillardan andoza olinishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bundan tashqari xonada mavjud jihozlar orasida retro mebellar, idish-tovoqlarning ahamiyati saqlanib qolganini ko‘rish mumkin. Turk uylari turlicha bo‘lishi mumkin. Ayrim katta oilalar moddiy tomondan ancha yaxshi ta’minlangan bo‘lib, bir-ikki qavatli uylarning mavjudligi va, asosan, birinchi qavatlarda do‘kon, qahvaxona, hunarmandchilik ustaxonalarining, tikivchilik atel’elarining joylashganini ko‘rsak, ikkinchi qavat, asosan, turar-joy bo‘limidan iboratligini ko‘ramiz. Turk eski shahar uylarining yana bir o‘ziga xos xususiyati, ularning interyerida ko‘p holatlarda



Karabyuk. Mahalla idorasi va masjidi.



Mahalla masjidi



Istanbul safari

eskidan qolgan jihozlarni uchratishimiz mumkin.

Bizning sharoitimidza xonalarni ta'mirlagandan so'ng, xona jihozlarini butkul yangilash urf bo'lib bormoqda, ammo turk xonadonlarida eski jihozlarga ham juda katta o'rinn berilganini ko'rishimiz mumkin. Eski jihozlar, hatto, turli ko'rinishda bo'lsa ham, xona interyeriga juda mos keladigan ravishda joylashtirishtirilganining guvohi bo'ldik. Eski qandillar, eski o'rindiqlar, eski xontaxtalar, eski idish tavoqlar, xonadonning interyerini bezashga xizmat qiladi. Hatto, ayrim xonadonlarda eski radio uskunasi, eski televizorlarning ham xonaning bezak atributi sifatida qo'yilganining guvohi bo'ldik. Agar xonadon hovlisi bo'lsa, bu hovlida biz eski, odatda tashlab yuboriladigan, xonadagi jihozlardan ham gul tuvak o'rnida foydalanib, ularni bezak anjomi sifatida qo'llanilganini ko'rdik. Hatto, eski kirzi etiklar, turli xil idishlarning gul tuvak o'rnida ishlatilganini ko'rdik. Ular ham o'ziga xos bezak sifatida ishtirok etadilar.



Qahvaxona. Safranbo'lu



Muhtorlik. Karabyuk

Turkiyada, masalan, turistik mahallalarining aksariyat tor ko'chalarida ko'plab xususiy mehmonxonalar, xususiy tamaddixonalar, do'konlar, xizmat ko'rsatish ustaxonalari, qahvaxonalar kabi muassasalar joylashgan bo'lsa, oddiy aholi yashaydigan eski shahar mahallalarida biroz boshqacha ko'rinishga duch kelamiz. Bu yerda turistlar uchun mo'ljallangan binolarni uchratmaymiz, mehmonxonalar ham ko'p sonli emas, ular bor bo'lsa ham aksariyat hollarda mahallalarning guzariga yaqin hududlarida joylashganini ko'rishimiz mumkin. Shunisi e'tiborga molikki, eski shahar agar u turistik mahalla hududi bo'lmasa, o'zining guzariga ega bo'lib, guzarda mahalla idorasi, choyxonasi, sartaroshxonasi, masjidi joylashganini ko'rishimiz

mumkin. Bu yerda oziq ovqat do‘koni hamda qahvaxona o‘rin egallaydi. Eng ko‘zga tashlanadigan holat, xoh u turistik mahalla bo‘lsin, xoh u oddiy aholi istiqomat qiladigan mahalla bo‘lsin, ko‘pchilik erkaklar ko‘cha yuzida ikki kishi, to‘rt kishi bo‘lib choy yoki qahva ichib o‘tirganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bizga odatda bunday vazifani mahalla guzarida joylashagan choyxonalarga yuklaymiz va erkaklar ko‘chada ochiq holatda o‘tirmasdan, xona ichida yoki choyxonaning hovlisida to‘planadilar. Turkiyada esa, ular bevosita mahallaning tor ko‘chalari chekkasida qahvaxona oldida o‘tirib, gurunglashganlarining uchratdik.



Safranbo‘lu ko‘chalari



Karabyuk ko‘chalari

Qora dengiz bo‘yida joylashgan Amasra shahrining eski shahar qismi bizda nihoyatda katta taassurot qoldirdi. Ushbu shaharning asosiy tor ko‘chalari relyefda joylashgani sababli yurish biroz murakkab. Ko‘chalar tosh qoplamlalarga ega. Ushbu tosh qoplamlalar avvalambor juda mustahkam, ko‘p yilga chidaydigan material hisoblanadi, shu bilan birgalikda ko‘cha interyerining o‘ziga xos bo‘lishiga xissa qo‘shadi. Ko‘chalarda ham, xonadonlarda ham ko‘plab tuvaklarda gul ekilgan. Ayniqsa, chiroyli gullaydigan daraxtlar ko‘pgina xonadonlarning ichki va tashqi hududlarini bezab turibdi. Muhimi ko‘chalarda inson o‘zini erkin his qiladi.

Turk eski shaharlaring yana bir ko‘zga tashlanadigan xususiyati – bu masjidlarning ko‘p sonliligidir. Bu yerlarda deyarli har bir mahallaning o‘z mahalla masjidi hamda bir nechta mahalla mo‘ljallangan uchun jom‘e masjidlari mavjudligini ko‘rdik. Tog‘ri, bizning O‘zbekiston hududida ham mustaqillikni qo‘lga



Amasra. Landshaft dizayni



Amasra ko'chalari



Amasra. Savdo rastalari

kiritganimizdan so‘ng, yangi masjidlar qurilishiga e’tibor berila boshlandi. Bizda ham jom’e masjidlari, mahalla masjidlari yangidan barpo etila boshlandi va o‘ylaymanki, bu aholiga ibodat qilish uchun ancha qulaylik yaratadi. Turkiya mahallalaridagi masjidlar bir-biriga nihoyatda o‘xshash va asosan bir uslubda qurilgan. Ularni bir-biridan ajratish biroz mushkul. Bizning masjidlarga solishtiradigan bo‘lsak, albatta bizning masjidlarda serhashamlik, bezaklarga bo‘lgan e’tibor so‘nggi yillarda ortib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bir tomondan qaraganda masjidlarning chiroyli bo‘lishi, insonlarni o‘ziga jalb etishi bu yaxshi holat deb baholash mumkin. Ularning interyerining boyligi, eksteryerining go‘zalligi shahar husniga husn qo‘shishi mumkin, insonlarga xush kayfiyat ulashishi mumkin deb hisoblansa, ichki tomondan masjidlarning interyeri deyarli bezaksiz bo‘lishi ma’qul deb o‘ylaymiz. Chunki, ibodat uchun kelgan inson interyerdagi bezaklarga mahliyo bo‘lmasdan, asosiy e’tiborini ibodatga bag‘ishlashi kerak deb hisoblaymiz.

Turkiyadagi tarixiy shaharlarning eski shahar qismi bo‘ylab harakatlanar ekanmiz, binolarning aksariyat holatlarda bir, ikki, uch qavatdan iborat ekanligiga ko‘zimiz tushadi. Ko‘p holatlarda relyefda imoratlarning bunday qavatlardan iborat bo‘lishi nihoyatda o‘ziga xos go‘zalliknni kashf etadi. Ko‘chalarning baland pastligi, binolarning turli qavatlarda namoyon bo‘lishi o‘zgacha ko‘rinishni ifoda etadi. Har bir markaziy ko‘chada albatta savdo shahobchalarini uchratamiz, shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish bino inshootlari, xususan hammomlar, ta’mirlash ustaxonlari ham



Amasra. Landshaft dizayni



Safranbo'lu ko'chalari



Istanbul mushuklari



Safranbo'lu. Qahvaxona.

bot-bot uchrab turadi. Ko‘pgina hududlarda kichik bo‘lsada, mahallalarning markazida o‘ziga xos markaziy maydonchasi bo‘lib, suv ichish favorasi yodgorlik, gulxonalarining tashkil etilganini ko‘rish mumkin.

Karabyuk shahrining chekka qismida, dengiz sathidan yuqori ko‘tarilganimizda bir mahallaga duch keldik. Ushbu mahalla turistik mahalla emas, balki oddiy aholi yashaydigan mahalla ekan va biz bu mahallaga tashrif buyurganimizda avvalo chiroyli shakllangan ko‘chalar e’tiborimizni tortdi va binolarning biz yuqorida aytgandek, relyefda joylashganligi ularning nihoyatda jozibadorligining oshishiga xizmat qilishini ko‘rdik. Ushbu mahallaning markaziy qismi mavjud bo‘lib, unda choyxona, sartaroshxona, mahalla masjidi, bir qancha do‘konlar va xususiy qahvaxonalarni uchratdik. Mahalla idorasida mahalla raisi bir vaqtning o‘zida choyxona yurituvchisi, masjid imomi ekanligini bildik. Shunisi qiziqarli bo‘ldiki, bu mahalla bir necha o‘n yillik tarixga ega bo‘lib, ushbu idora ichidagi choyxonada choy ichish, suhbat qilish va soch oldirish uchun sartarosh

xizmatidan foydalanish mumkin ekan. Bizning e'tiborimizni tortgan bir narsa ushbu mahalla idorasida o'ziga xos muzeyning mavjudligi bo'ldi. Muzey uchun alohida xona ajratilmagan. Muzey eksponatlari bevosita insonlar, perimetr bo'ylab joylashgan yumshoq xona jihozlarida o'tirgan holda choy yoki qahva ichishlari va ular shu xonaning devorlarida mahallaning barpo etilganidan to bugungi kungacha raislik qilgan insonlarning fotoportretlarini tomosha qilishlari mumkin.

Istanbulning eski shahar qismida yana bir holat diqqatimizni tortdi, u ham bo'lsa, Istanbul mushuklari. Bamisolgi Hindistonda sigirlarga bo'lgan hurmat, ularga bo'lgan e'tiqodni biz Turkiyaga mushuklariga nisbatan ko'rgandek bo'ldik. Chunki ular nihoyatda dahlsiz, o'zlarini erkin xis qiladilar, xohlagan joylarida yotib, xohlagan joylarida ovqatlaveradi. Ularning soni nihoyatda ko'p. Ular uylarning hovlilarida, deraza yoki eshik oldida, hatto ovqatlanadigan xontaxtangiz ustida ham bemalol joylashib olishi mumkin ekan. "Mushugini pisht deya olmaysan" degan ibora shu yerdan kelib chiqqan bo'lsa kerak degan fikr hayolimizdan o'tdi.

XULOSA

Mahalla noyob shaharsozlik qurilmasi va ma'muriy bo'linma hisoblanib, uning shakllanish jarayoni unda kechadigan turmush tarzi nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Mahalla deganda ko'z o'ngimizda ilonizi tor ko'chalar, bir ikki qavatli, boloxonali, dalonli uylar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Shuningdek, mahalla guzarining o'ziga xos fayzi, uni tashkil etuvchi bino va inshootlarning o'zaro mujassamligi, mahalla ahlining bir oiladek turmush kechirishiga asoslangan hayot tarzi kishida hayrat uyg'otadi. Mahalla o'zining biz yuqorida ta'kidlagan va boshqa bir qancha ijobiy harakteristikalariga ko'ra nafaqat yurtimizda, balki, horijda ham so'nggi yillarda tez-tez tilga olinmoqda. Mahalla haqida ko'plab horijlik sayyoqlar, arxitektor va shaharsozlar, jurnalistlar o'z chiqishlarida ko'plab ijobiy fikrlar bildirmoqdalar. Yaqindagina Italiyaning Venetsiya shahrida bo'lib o'tgan arxitektura biyennalesida ham mahalla haqida iliq fikrlar bildirildi va ko'rinishlari namoyish etildi. Bugungi kunda mahalla nafaqat insonlar hamjihatlikda yashaydigan hudud, balki, noyob turistik obyekt sifatida ham omma diqqatini tortmoqda. Afsuski, so'nggi yillarda ko'pgina tarixiy shaharlarimizda, xususan, Toshkentda Eski shahar

mahallasiga bo‘lgan nomunosib yondashuv tufayli Eski shahar mahallasining kattagina qismi o‘z o‘rnini majburan zamonaviy obyektlarga bo‘shatib bermoqda. Eski shahar mahallasi o‘zining yaxlitligini yo‘qotib bormoqda. Bu qayta tiklab bo‘lmas yo‘qotish hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot ishimizning asosiy mazmuni va mohiyati Eski shahar mahallasining durdona obyekt ekanligini mutasaddilarga ko‘rsatish, unda kechayotgan jarayonlarning xalqimizga xos bo‘lgan qadriyatlarni saqlab qolishdagi ahamiyatini yanada yaqqol ko‘rsatish orqali mahallaga keng omma e’tiborini qaratishdan iborat.

Eski shahar mahallasini saqlab qolish kunning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. Mahalla bizning an’naviy shaharsozligimiz, me’morchiligidimiz ko‘zgusidir. U hozirgi shiddatli kechayotgan jarayonlarda hamjihatlik, mehr-oqibat o‘chog‘i bo‘lib qolmoqda. Uning o‘ziga xos fayzi hali-hanuz kishilar e’tiborini tortmoqda. Uning bu jihatlari sayyoohlar nigohini ham jalb etmoqda. Bularning barchasi Eski shahar mahallalarini saqlab qolish zaruratini taqozo qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mahalla - Vikipediya ([wikipedia.org](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahalla))
2. X. Po‘latov “Shaharsozlik tarixi” o‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2000y., 296 b.
3. O. A. To‘lqunov “O‘zbekistonning zamonaviy shaharsozligida eski shahar mahallasini saqlab qolish yo‘llarini tadqiq qilish (Toshkent shahri misolida)” mag. diss. Toshkent, 2021y.